



**LOCATION OF AGRICULTURAL NETWORKS FORMS
QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOQLARINI JOYLASHTIRISH SHAKLLARI**

Abdurashidova Madinabonu Rustamjon qizi
Andijan State University Students of the Faculty of Natural Sciences
abdugopurovsho33@gmail.com

Abdugofurov Shokhjakhon Muhammadqobul o‘g‘li
Student of the Faculty of Socio-Economics
abdurashidovamadina1123@gmail.com

Mahmudjonov Ibrohimjon
mahmudjonovibrohimjon727@gmail.com

Anotatsiya

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning eng qadimiy tarmog‘i. Qishloq xo‘jaligining jahon iqtisodiyotdagi o‘rni keyingi yillarda keskin rivojlanib bormoqda, bu esa qishloq xo‘jaligining jahon iqtisodiyotidagi ahamiyati yanada oshyotganidan dalolat beradi. Qishloq xo‘jaligining asosiy masalasi bu qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning barqarorligini ta‘minlash va iqtisodiy samaradorligini oshirib borish asosida mamlakat aholisining oziq-ovqatga, sanoatning esa xomashyoga bo‘lgan ehtiyojini qondirishdir.

Abstract

It is the oldest branch of agricultural production. The role of agriculture in the world economy has been growing rapidly in recent years, indicating that the role of agriculture in the world economy is growing. The main task of agriculture is to meet the needs of the population for food and industry for raw materials in order to ensure the sustainability of agricultural production and increase economic efficiency.

Аннотация

Это старейшая отрасль сельскохозяйственного производства. Роль сельского хозяйства в мировой экономике в последние годы быстро растет, что свидетельствует о том, что роль сельского хозяйства в мировой экономике возрастает. Основной задачей сельского хозяйства является обеспечение потребности населения в продуктах питания и промышленности в сырье с целью обеспечения устойчивости сельскохозяйственного производства и повышения экономической эффективности.

Kalit so‘zlar: Qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, joylashtirish, mehnat resurslari, Tyunen, Yer rentasi.



Keywords: Agriculture, farming, animal husbandry, accommodation, labor resources, Tunen, land rent.

Ключевые слова: сельское хозяйство, земледелие, животноводство, жилье, трудовые ресурсы, Тунен, земельная рента.

Ma'lumki xo'jalik tarmoqlari ikki turga bo'linadi. Bular sanoat va qishloq xo'jaligi. Har ikkala tarmoq ham mamlakatlar rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin ko'pchilik mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida ikkisidan biri ustunroq jihatga ega bo'ladi. Ya'ni ayrim mamlakatlar iqtisodiyotida sanoat yetakchilik qilsa, ayrim mamlakatlar iqtisodiyotda qishloq xo'jaligi muhim ahamiyatga ega. Shunday mamlakatlar ham borki, ularning rivojlanishida qishloq xo'jaligi ham, sanoat ham muhim ahamiyatga ega. Bularning barchasiga esa mamlakatlarning tabiiy sharoiti, iqlimi kabi omillar sabab bo'ladi. Yana shuni aytib o'tish lozimki, ayrim sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun qishloq xo'jaligi albatta kerak bo'ladi. Chunki qishloq xo'jaligi sanoatda ishlab chiqarishning xomashyo bazasini tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi — inson xo'jalik faoliyatining dastlabki turlaridan biri. Uning kelib chiqishi tosh davri oxiriga borib taqaladi. Bu davrda inson xo'jalik va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun yerni oddiy qurollar bilan ishlagan, ba'zi xayvonlarni xonakilashtira boshlagan. Asrlar davomida turli sharoitlar ta'sirida dehqonchilik tizimi o'zgargan va takomillashgan; hayvonlarning foydali xususiyatlari parvarishlangan, ko'plab zotlari yetishtirilgan.

Qishloq xo'jaligi - moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari olish uchun ekinlar ekish va chorva mollarini ko'paytirish bilan shug'ullanadi, aholini oziq-ovqat mahsulotlari va xalq xo'jaligining bir qancha tarmoqlarini xomashyo bilan ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligi o'simlik va hayvon mahsulotlarini dastlabki qayta ishlashning turli tarmoqlarini ham o'z ichiga oladi. Moddiy ishlab chiqarishning boshqa jami sohalaridan farq qilgan holda qishloq xo'jaligi juda katta maydonlarda va hududiy xilma xil sharoitlarda olib boriladi. Unda yer (asosiy ishlab chiqarish vositasi), yorug'lik, issiqlik, suv va tirik organizmlar — o'simlik va hayvonlardan foydalaniladi. Qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish davri ish davri bilan mos tushmaydi. Qishloq xo'jaligining ning asosiy tarmoqlari — dehqonchilik va chorvachilik. Ular ham o'z navbatida bir qancha kichikroq tarmoqlarga bo'linadi (dehqonchilikda — dalachilik, sabzavotchilik, polizchilik, bog'dorchilik, o'rmon xo'jaligi va boshqa; chorvachilikda — qoramolchilik, qo'ychilik, yilqichilik, cho'chqachilik, parrandachilik, asalarichilik, pillachilik va boshqalar). O'z navbatida, dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari ekiladigan ekinlar (g'allachilik, sholikorlik, paxtachilik) va chorva mollari turlari (qoramol, qo'y, ot, tuya) bo'yicha guruhlanadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarni yetkazib beruvchi asosiy manbadir. Ayni vaqtda u keng iste'mol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sanoatning bir qancha tarmoqlari uchun xom-ashyo yetkazib beradi. Masalan, qishloq xo'jalik xomashyosining ulushi (qiymat jihatidan) ip-gazlama sanoatida barcha moddiy xarajatlarning 60 foizini, qandolat sanoatida salkam 70 foizni, yog' va sut sanoatida qariyb 80 foizni tashkil qiladi. Bularning hammasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni ko'ngildagiday sur'atlar bilan rivojlanmasa, xalq turmush darajasini oshirishning hech qanday eng yaxshi programmasini ham ro'yobga chiqarib bo'lmaydi. Qishloq xo'jaligining ahamiyati yana shu



bilan belgilanadiki, xalq xo'jaligida band bo'lgan xodimlarning 27 foizi shu sohada mehnat qiladi. Qishloq xo'jaligida mamlakat milliy daromadining taxminan uchdan bir qismi yaratiladi. Shu sababli mamlakat butun iqtisodiyotining o'sish sur'atlari, mehnatkashlar farovonligini oshirish ko'p jihatdan qishloq xo'jaligining rivojlanish darajasiga bog'liqdir.

Qishloq xo'jaligini joylashtirish – bu alohida tur mahsulotlar ishlab chiqarishni mamlakatning respublika, viloyat va tumanlar bo'yicha taqsimlash bo'lib, jarayon uzoq davom etuvchi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga ko'ra o'zgaruvchandir. Qishloq xo'jaligini eng to'liq joylashtirilishini ushbu hududda ma'lum turdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmi va u yoki bu turdagi yalpi va tovar mahsulotlarining umumiy hajmidagi alohida hududlarning hissasi kabi ko'satkichlar bilan izohlanadi. Qishloq xo'jaligini joylashtirish mehnatning ijtimoiy bo'linishi geografik (hududiy) bo'linishining bir shakli bo'lib, u qishloq xo'jaligini ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlaridan yuzaga keladi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirishda tabiiy sharoit va agroiklimiy resurslarning ahamiyati juda yuqoridir. Ayniqsa yer, suv, harorat, tuproq, yer usti tuzilishi muhim o'rin tutadi. Tabiiy sharoiti eng qulay bo'lgan hududlarda ekinlar hosildorligi va chorva mollarining mahsuldorligi yuqori bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishlarini joylashtirishda alohida e'tibor hududlardagi mehnat resurslaridan samarali foydalanishga qaratilishi lozim. Aholisi zich joylashgan zonalarda fond va energiya bilan ta'minlanish kerakli darajada bo'lganda unday joylarga mahsulot birligiga sezilarli mehnat sarfi talab qilinadigan chorvachilik va dehqonchilikning intensiv tarmoqlarini joylashtirish kerak. Mehnat resurslari mavjudligini hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkillashtirishning xo'jalik yuritish tizimi, tarmoqlar strukturasi, tarkibiy o'zgarishlar, ekin maydonlari va boshqa elementlari hisobga olinishi zarur.

Bundan tashqari qishloq xo'jalik tarmoqlarini joylashtirish masalalari oldindan ham ma'lum bo'lgan. Buning ustida bir qancha olimlar o'zlarining ishlarini amalga oshirganlar. Masalan, Nemis mulkdori Iogan Genrix Tyunen XIX asrning 20-30-yillarida o'zining qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirish bo'yicha ilmiy fikrlarini maxsus asarida bayon qildi("Изолированное государство" - Alohida davlat, 1826-y). Tyunen g'oyasining asosiy mohiyati yagona shahar, ya'ni iste'mol markazi atrofida qishloq xo'jalik mahsulotlarini ma'lum tartibda yetishtirishni hududiy tashkil qilishdan iborat. U bu g'oyani amalga tatbiq qilish uchun xo'jalik bilan shahar yoki bozor o'rtasidagi masofa, qishloq xo'jalik mahsulotining narxi, qiymati va yer rentasiga asoslanadi. Yer rentasi esa unga qo'yilgan mablag' va olingan daromad nisbati bilan belgilanadi.

Yuqoridagi shartlar yordamida I.Tyunen shahar atrofida qishloq xo'jaligi tarmoqlarining joylashuv tizimini yoki hududiy majmuasini yaratadi. Bu tizim adabiyotda " Tyunen halqalari" nomi bilan mashhur. Chunki, turli mahsulotlarni yetishtirishga ixtisoslashgan har xil tarmoqlar iste'mol markazi atrofida halqasimon joylashadi.

"Tyunen halqalari" quyidagilarni o'z ichiga oladi:

I halqa - bog'dorchilik, sabzavotchilik va qisman sut chorvachiligi;

II halqa - o'rmon xo'jaligi (o'sha davrda o'tin uchun);



III halqa - kartoshka, arpa yetishtirish va urug'chilik;

IV halqa - yuqori unumdor g'allachilik va sut-go'sht chorvachiligi;

V halqa - g'allachilik;

VI halqa - yaylov chorvachiligi.

Shunday qilib, I.Tyunen qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirishning dastlabki ilmiy poydevorini yaratuvchisi bo'ldi va shu ma'noda uni qishloq xo'jaligi geografiyasining asoschisi sifatida e'tirof etish mumkin. Shuningdek uning bu joylashtirish shakli hozirgi kundagi qishloq xo'jaligi tarmoqlarini shaharlar atrofida joylashtirishda ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.X. Ergashev, Sh.Sh. Fayziyeva, S.N. Xamrayeva. "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" Toshkent "Iqtisod-moliya" 2018
2. Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya. Darslik. Toshkent "Noshir"2019
3. Qayumov A.A. Qodirov R.B Qishloq xo'jaligi geografiyasi va iqtisodiyoti
4. "Узбекистон Миллий Енцклопедяси" Давлат илмий нашриёти.
5. Zamonaviy dunyoda ilm-fan va madaniyatning o'rni. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.